
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOT DIREKTORLARINING NAVBATDAGI USLUBIY BIRLASHMASI O'TKAZILDI.

Quvasoy shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi Ganiyeva Dilorom Xamidovna rahbarlik qilayotgan 12-davlat, tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkilot direktorlarining navbatdagi uslubiy birlashmasi o'tkazildi. Uslubiy kengashda "Pedagogik kengashlar-mahorat maktabi" hamda "Kuzatuvlar kengashi faoliyati" mavzular chuqur o'rganib chiqildi. Seminarda tasarrufdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari, viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi mutaxassisi D.Ergasheva hamda bo'limning mutaxassislari ishtirok etishdi. Seminar yuqori saviyada, bahs-munozara shaklida o'tkazildi. Seminarda pedagogik kengashlarning o'tkazilish tartibi, ko'riladigan dolzarb mavzular, kengash qarorlarini chiqarilishi va unga ma'sul bo'lgan pedagoglarning vazifalari to'g'risida fikr yuritildi. Kuzatuvlar kengashi a'zolarini saylash tartibi, ish hujjatlarini yuritilishi shuningdek, kuzatuv kengashining maqsad va vazifalari to'g'risida keng tushunchalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-01-25 18:34:28